



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 31-yanvar, № 21 (9192)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



BIRINCHI PREZIDENT XOTIRASIGA EHTIROM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30 yanvar kuni
Toshkent shahrida Islom Karimov haykali poyiga gulchambar qo'ydi.



Tarixiy xotira – millat kelajagining mustahkam poydevori. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi, davlatchilik asoslarining barpo etilishida Birinchi Prezident Islom Karimovning

xizmatlari beqiyos ekani chuqur hurmat va e'tirof bilan yodga olinadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va e'tibori bilan Birinchi Prezidentning xotirasi

abadiylashtirildi, Samarqandda uning maqbarasi barpo etildi. Islom Karimov tavallud topgan 30 yanvar sanasini nishonlash ezgu an'anaga aylandi.

Marosim davomida Qur'on tilovat

qilinib, duo o'qildi. Birinchi Prezidentning Vatan manfaatlari yo'lidagi faoliyati, insoniy fazilatlariga yodga olindi.

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasida bo'lib o'tgan

marosimda Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi va hukumat vakillari, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Shuningdek, Birinchi Prezidentning

Samarqand va Qarshi shaharlaridagi haykallari poyiga ham gullar qo'yilib, xotirasiga ehtirom ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

«O'ZBEKNEFTGAZ» AJ FAOLIYATIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TATBIQ QILINADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev
«O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyati
faoliyati samaradorligini oshirish masalalari
yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda energetika xavfsizligini mustahkamlash, energiya resurslari, jumladan, tabiiy gazga bo'lgan ichki talabni barqaror qondirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyot va aholining tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgani yangi xaziralarni aniqlash, mavjud konlar samaradorligini oshirish va yangilarini ishga tushirishni taqozo etmoqda.

Shu munosabat bilan «O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyatining oldiga sohada natijadorlikni tubdan oshirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish vazifalari qo'yilgan.

Qayd etilganidek, 2025 yilda jamiyat korxonalari tomonidan 25,2 milliard kub metr tabiiy gaz qazib chiqarilib, 56 ta yangi quduq burg'landi, 29 ta quduq mukammal ta'mirlandi.

2026-2027 yillarda tabiiy gaz chiqarish hajmini barqaror darajada ta'minlash, 300 dan ortiq geologik-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Taqdimotda buning uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar to'g'risida axborot berildi.

Jumladan, geologiya-qidiruv va geologik-texnik tadbirlar samaradorligini oshirish, xaziralarni ko'paytirish va qazib chiqarish hajmining barqarorligini ta'minlash, xaridlar tartib-taomillarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, gazni chuqur qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, import o'rnini bosuvchi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, jamiyat va uning korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish choralarini ko'riladi.

O'ZA.

JIZZAX VILOYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR IZCHIL DAVOM ETTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

O'tgan yillarda olib borilgan islohotlar va tizimli chora-tadbirlar natijasida viloyat iqtisodiyotida tarkibiy transformatsiya yuz berdi. Natijada hudud agrar sohadan diversifikatsiyalangan sanoat, xizmatlar va zamonaviy agroklastarlarga ixtisoslashdi. To'qimachilik, qurilish materiallari, avtomobilsozlik, elektrotexnika va turizm kabi yangi o'sish drayverlari shakllandi.

Yalpi hududiy mahsulotda sanoat ulushi 9,1 foizdan 18,8 foizga oshdi, qishloq xo'jaligining ulushi 50 foizdan 36 foizga kamaydi. Shuningdek, ishsizlik va kambag'allik tegishlacha 4,9 va 5,8 foizga kamaydi, eksport 1,8 barobar, xizmat ko'rsatish 1,6, sanoat ishlab chiqarishi hajmi 1,9 barobar ko'paydi.

25 ta yirik hamda 533 ta o'rta va kichik investitsiya loyihalari ishga tushirildi, 1,4 milliard dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. Eksportchi korxonalar soni 160 taga yetib, eksport hajmi 285 million dollarni tashkil qildi.

Yig'ilishda viloyatda kambag'allik va ishsizlikni yanada qisqartirish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligida keskin o'sishga erishish bo'yicha rejalari ko'rib chiqildi.

Xususan, 2026-2027 yillarda yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlarini 8,5 foizga yetkazish, sanoatda ishlab chiqarish hajmini 8 foizga oshirish, 5 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish va yillik eksport hajmini 500 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

E'tiborlisi, o'tgan yillarda investitsiyalar, asosan, xomashyo qazib olish yoki oddiy

yig'uv ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lsa, endilikda yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat loyihalariga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, joriy yilda viloyatda ishsizlik darajasini 3 foizga, kambag'allikni 2,8 foizga tushirish, 182 ta mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari bu maqsadlarga viloyatdagi mahallalarni chuqur ixtisoslashtirmasdan erishib bo'lmagligini qayd etdi.

Shu munosabat bilan viloyatda kelgusi ikki yilda yangi model rivojlantiriladi. Huddagi 304 ta mahallaning solishtirma ustunliklari tahlil qilinib, ularning bog'dorchilik, chorvachilik, sabzavot va polizchilik, sanoat, servis hamda turizm yo'nalishlariga ixtisoslashuvini chuqurlashtirish dasturi ishlab chiqildi.

Dastur doirasida 5 ming gektar eski bog' va tokzorlarda sertifikatlangan ko'chatlar ekish, 4,6 ming gektar sanoatlashgan plantatsiyalar barpo etish, 10 ming gektar aholi tomorqasi va ijara yer maydonlarida hosildorligi yuqori va eksportbop mahsulotlar yetishtirish, 101 ming bosh chorva mollarinin naslini yangilash, 5 ta sanoat mikromarkazlari, 6 ta yirik turizm majmualarini tashkil etish, har bir tuman markazida istirohat bog'larini barpo qilish va gajvum ko'chalar tashkil etish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Yig'ilishda drayver loyihalar infratuzilmasini mustahkamlash uchun joriy yilda 200 milliard

so'm ajratilishi belgilandi. Sanoatni rivojlantirish maqsadida 2026-2027 yillarda umumiy qiymati 2,7 milliard dollarlik yirik investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Bunda viloyatdagi qo'rg'oshin-rux, volfram, oltin va boshqa noruda konlardan samarali foydalanish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Zomin tumanida qishloq xo'jaligi ilmiy-sanoat parki loyihasining taqdimotida makkajo'xorini qayta ishlash, yuqori fruktozali sirop va allyuloza ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish rejalashtirilgani aytiladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi yo'nalishida naslli chorva mollarni xarid qilish, tuyachilikni rivojlantirish, «Jayilma» kanalini rekonstruksiya qilish choralarini ko'riladi.

Davlatimiz rahbari viloyatni rivojlantirishda tog'li va cho'l hududlarning salohiyatini alohida yondashuvlar asosida ro'yobga chiqarish zarurligini ta'kidladi. Jumladan, joriy yilda 25 ming gektar lalmi va yaylov yerlarini foydalanishga kiritish va yaylovlardan samarali foydalanish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Yig'ilishda Jizzax viloyatining turizm salohiyati ham tahlil qilindi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, shuningdek, Baxmal, Forish, Zafarobod, Sharof Rashidov va G'allaorol tumanlarining imkoniyatlari to'liq ishga solinmayotgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan ushbu tumanlarda turizm majmualarini tashkil etish, Arnasoy aeroportini kengaytirish, xalqaro avtomobil

yo'llar bo'yida savdo-servis majmualarini qurish rejalari ko'rib chiqildi.

Joriy yilda mahallalarda ijtimoiy obyektlar, yo'llar, ichimlik suvi, kanalizatsiya va elektr tarmoqlari qurilishi uchun 30 million dollar, kelgusi yilda esa yana 10 million dollar mablag' ajratiladi. Buning hisobiga 14 mahalladagi ijtimoiy soha obyektlari, olis 28 ta mahallani bog'lovchi 105 kilometr yo'llar, 9 ta mahalla aholisi uchun 50 kilometr ichimlik suvi, elektr tarmoqlari, 13 ta mahallada 65 kilometr oqova suv tarmoqlari quriladi va ta'mirlanadi.

Shaharsozlik yo'nalishida Baxmal, Zafarobod va G'allaorol tumanlarini fazoviy rejalashtirish va bosh rejalarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Jizzax shahri va Sharof Rashidov tumani yagona aglomeratsiya hududi sifatida rivojlantiriladi. Bu bo'yicha ishlab chiqiladigan bosh rejada shahar ichidagi tirbandliklarni kamaytirish maqsadida 10 kilometrlik aylanma yo'l qurish, shahar va tumanini bog'laydigan yagona jamoat transport tizimini yo'lga qo'yish, yagona ma'muriy bino qurish orqali tashkilotlarni bir joyga ko'chirish nazarda tutiladi.

Yig'ilish yakunida mutasaddilarga viloyatni yanada rivojlantirish doirasidagi har bir loyihani aholi bandligi hamda turmush darajasini oshirish bilan bog'lab bajarish bo'yicha topshiriqlar berildi.

O'ZA.

Xalq vakillari – hududlarda

XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DEPUTATLAR O'RNI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari
Prezidentimiz raisligida 27 yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor
yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida
Toshkent shahrining Chilonzor tumanidagi qator mahallalarda bo'ldi.

“Bekto'pi” mahalla fuqarolar yig'inidagi uchrashuvlar jarayonida “mahalla yetiligi” faoliyati, xususan, mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda profilaktika inspektorlarining bu boradagi faoliyati atroflicha o'rganildi.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari bilan uchrashuv o'tkazilib, ularning xizmat faoliyatini

to'laonli amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar muhokama etildi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish kabi masalalarga ham e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, huquqbuzarlik hamda jinoyatga sabab bo'layotgan yoki unga sharoit yaratayotgan omillar chuqur o'rganilib, takliflar eshitildi.

MAQSAD – KENGASHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Oliy Majlis Senatida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari raislari
hamda hokimlar uchun o'quv seminarlari yakunlanmoqda.

Seminar

29 – 31 yanvar kunlari mazkur o'quvlarida qatnashayotgan to'rtinchi guruh tinglovchilari Surxondaryo, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarining mahalliy boshqaruv organlari rahbarlaridan tashkil topdi.

Ushbu seminarlar mahalliy darajada boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yangi yondashuvlarni joriy etish, Kengashlar faoliyatining natijadorligini oshirish, ijtimoiy masalalarni hal etishda tizimli rejalashtirish va tahliga tayangan ish uslublarini shakllantirishga qaratilgan.

Mashg'ulotlar jarayonida tinglovchilar hududiy

dasturlarni ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish, mahalliy byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholi bandligi hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq masalalar, shuningdek, bu borada o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha amaliy bilimlarga ega bo'ldi. Bundan tashqari seminar mashg'ulotlari davomida Kengashlarda deputatlik so'rovlari bilan ishlash, ijro intizomiga rioya qilish, mahalliy hokimiyat ijro organlari faoliyati ustidan deputatlik nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.





MAQSAD — KENGASHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH



O'quv jarayonlari doirasida tinglovchilarning raqamli tahlil vositalari orqali muammolarni aniqlash, aholi murojaatlarini tizimli o'rganish, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish hamda natijadorlikni baholash ko'nikmalari ham mustahkamladi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva tinglovchilar huzurida mahalliy rahbarlarning faoliyatida tashabbuskorlik, shaxsiy javobgarlik va aholi bilan doimiy muloqot muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Shuningdek, har bir qabul qilinayotgan qaror joylarda ijobiy o'zgarishlarga

olib kelishi, deputatlar va hokimlar o'z faoliyatida qonuniylik, adolat hamda ochiqlik tamoyillariga qat'iy amal qilishi zarurligini qayd etdi.

Seminarlar yakunida ishtirokchilar joylardagi muammolarni aniqlash, ularning yechimi bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish, aholi bilan ishlashda samarali mexanizmlarni qo'llash hamda qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Senat qo'mitasida

SON EMAS, SIFATGA E'TIBOR QARATISH MUHIM

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida ilm-fan sohasiga oid qonunchilikni takomillashtirish borasida muhokama bo'lib o'tdi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda so'nggi yillarda ilm-fan sohasi tobora rivojlanib, tadqiqotlarda amaliy natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2025 yilda davlat ilmiy dasturlari doirasida umumiy qiymati 577,1 mlrd. so'm bo'lgan 323 ta ilmiy loyiha moliyalashtirildi.

Tadqiqotlar natijasida yaratilgan ilmiy mahsulotlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish hamda oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlari tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi 30 ta innovatsion (spin-off) korxona faoliyat ko'rsatmoqda. 300 dan ortiq tijoratlashtirilgan yangi ishlanmalardan foydalanilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 250 ga yaqin oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari faoliyat ko'rsatyapti.

Bularning barchasi ilmiy faoliyatning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashni, ilm-fan sohasiga oid qonun hujjatlariga zarur tuzatishlar kiritishni taqozo etmoqda.

Majlis ishtirokchilari o'z chiqishlarida amaldagi

qonunchilikda "ilmiy va ilmiy-texnik loyiha", "ilmiy-texnik mahsulot", "ilmiy-texnik natija" kabi muhim tushunchalarga ta'rif berilmaganini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining ilmiy halollik va akademik insofilik, ilmiy natijalarning tekshiruvchanligi va shaffofligi kabi yangi tamoyillarini mustahkamlashni davrning o'zi talab qilayotgani qayd etildi.

Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish maqsadida qo'mita tomonidan ilm-fan sohasiga oid qonunchilik taklifini tayyorlash uchun mas'ul vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzildi.

Muhokamada so'zga chiqqan senatorlar, olim va mutaxassislar endilikda ilm-fanni rivojlantirishda songa emas, balki sifatga alohida e'tibor qaratish, turli byurokratik to'siqlar yoki korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish dolzarb vazifalaridan ekanini ta'kidlashdi.

«Xalq so'zi».

Onlayn uchrashuv

MINTAQAVIY ALOQALARNI MUSTAHKAMLASH — MUHOKAMA MARKAZIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi bilan hamkorlik bo'yicha komissiya a'zolarining onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi do'stona hamda o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni mustahkamlash, parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, oliy va yuqori darajadagi kelishuvlar ijrosini ta'minlash, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlik, mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash, qo'shma sarmoyaviy loyihalarni parlament tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini ko'rib chiqish uchun komissiyaning yig'ilishlarini muntazam o'tkazib borish zarurligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida parlamentlararo muloqotni chuqurlashtirish va mintaqaviy aloqalarni rivojlantirishga kelishib olindi.

«Xalq so'zi».

DO'STONA VA OCHIQ MULOQOTGA ASOSLANGAN SHERIKLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi va Anqara shahrida o'tkazilgan oliy darajadagi muzokaralar ikki davlat o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarining izchil va mustahkam rivojlanib borayotganini yaqqol tasdiqladi.

Muzokaralar yakunlari bo'yicha imzolangan Qo'shma bayonot hamda turli sohalarini qamrab olgan ikki tomonlama bitimlar siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan aniq va samarali mexanizmlarni belgilab berdi.

Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash, migratsiya, mudofaa va kiberxavfsizlik sohalarida hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha kelishuvlar mamlakatlarimizning manfaatlari uyg'un ekanini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda ikki davlatning do'stlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu boradagi raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, o'tgan yili o'zaro savdo hajmi 3 mlrd. AQSH dollaridan, qo'shma korxonalarining soni esa 2,2 mingtadan oshdi, o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi qariyb 10 mlrd. dollarni tashkil etdi. Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida



9 mlrd. dollarlik loyihalar portfeli shakllantirilgan.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi turizm va ishbiarmonlik yo'nalishlari rivoji ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xususan, haftasiga yuzga yaqin aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda. Kelgusida savdo hajmini, jumladan, Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim doirasida tovarlar turini kengaytirish, ustuvor iqtisodiy tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash orqali 5 mlrd. dollarga yetkazishga kelishib olindi.

Shuningdek, muloqotlarda madaniy va gumanitar almashinuvlarni yanada kengaytirish, xususan, birgalikda teatr va kino haftaliklari, badiiy

ko'rgazmalarni o'tkazish hamda ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Oliy darajadagi uchrashuvlarda Strategik hamkorlik kengashi yig'ilishlarini muntazam ravishda o'tkazish, Hukumatlararo komissiya va Strategik rejalashtirish guruhi mexanizmlaridan samarali foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyoti izchil davom ettiriladigan bo'ldi. Kengash yig'ilishi yakunlaridan kelib chiqib, ikki mamlakat hukumatlari tomonidan erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha keng qamrovli "Yo'l xaritasi" qabul qilinishi ta'kidlandi.

Aytilish joizki, ushbu kelishuvlarning o'z vaqtida, to'liq va samarali ijro etilishi mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi va mintaqaviy barqarorlikka xizmat qiladi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari kelgusida ham o'zaro ishonch, ochiq muloqot va amaliy natijalar asosida izchil rivojlanib borishiga ishonamiz.

Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatining
Byudjet va iqtisodiy masalalar
qo'mitasi raisi.

IJTIMOYIY ADOLAT, INSONPARVARLIK VA TARAQQIYOT G'OYALARI BIRDAMLIKDA RO'YOBGA CHIQRILADI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi nafaqat strategik sheriklikni mustahkamlashga, balki mintaqaviy barqarorlik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik va taraqqiyot g'oyalari birlamlikda ilgari surishga ham xizmat qiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlarining fikr-mulohazalari shu haqda.

Keng qamrovli strategik sheriklik yanada rivojlanadi

Aktam HAITOV,
O'ZLiDeP fraksiyasi rahbari:

— O'zbekiston va Turkiya yaqin yillarda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmini sezilarli darajada oshirish maqsadini qo'yayotgani ularning o'zaro manfaatdorlik va hamkorlikning real natijalariga intilayotganidan dalolat beradi.

O'zaro savdoda eng qulay rejim va Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim amal qilmoqda. Bu esa biznes uchun keng sharoitlar yaratmoqda. Turkiya barqaror ravishda O'zbekistonning yetakchi savdo-iqtisodiy sheriklari qatoriga kirib, tovar ayirboshlash va import hajmi bo'yicha to'rtinchi, eksportda beshinchi o'rinni egallab kelmogda.

Investitsiyaviy hamkorlik ham ikki tomonlama munosabatlarning asosiy elementi hisoblanadi. Joriy yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda Turkiya kapitali ishtirokidagi 2,2 mingta korxona faoliyat yuritmoqda, bu xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sonining qariyb 12 foiziga tengdir. Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qiymati 9 mlrd. dollarlik loyihalar portfeli shakllantirilgan. Turkiya kapitali, asosan, O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga, jumladan, energetika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalariga yo'naltirilgan.

Bu va boshqa tendensiyalar Anqara shahrida bo'lib o'tgan tadbir davomida yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu tadbir yakunlarining tahlili faol siyosiy muloqot, muntazam davlatlararo maslahatlashuvlar, shartnomaviy-huquqiy bazani kengaytirish va madaniy-gumanitar almashinuvni rivojlantirish tarafdori bo'lgan davlat rahbarlarining muhim roli ni ko'rsatadi.

Ushbu sa'y-harakatlarning barchasi ikki tomonlama munosabatlarda o'zaro ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda mintaqaviy va global vazifalarni birgalikda hal etishga yo'naltirilgan sheriklikni yangi bosqichga olib chiqish uchun xizmat qildi.

Yuqori darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi davomida kengash yig'ilishlarini muntazam o'tkazish, Hukumatlararo komissiya va Strategik rejalashtirish guruhi mexanizmlaridan samarali foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

Fikrimizcha, erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha kompleks "Yo'l xaritasi"ning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi hamkorlikning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xalqlarimizni bog'lovchi rishtalar

Alisher QODIROV,
«Milliy tiklanishi» DP fraksiyasi rahbari:

— Turkiy dunyoning eng yirik ikki davlati — O'zbekiston va Turkiya rahbarlarining uchrashuvi,

shubhasiz, Yevroosiyo qit'asida tinchlik va taraqqiyotga erishish, eng asosiysi, millatlararo munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi bilan ham muhim voqeyelik sifatida talqin etilmoqda.

Ikki davlat munosabatlari haqida gap ketganda, tarixiy rishtalar — qadriyatlar, til, din, madaniyat va urf-odatlar millatlarni o'zaro bog'lab turgani, O'zbekiston turklarining ota yurti ekanini va bu qadimiy zaminda qardoshlik munosabatlari h y e c h q a c h o n u z i l m a g a n i n i ta'kidlash joiz.

Ma'lumki, Turkiya O'zbekiston mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan, vaqt sinovidan o'tgan do'stlik, hamjihatlik rishtalari tobora mustahkamlanib, ikki xalq munosabatlari uzoq muddatli strategik sheriklik darajasigacha ko'tarildi. Buni davlatimiz rahbarining kunlari kecha Turkiyaga navbatdagi tashrifi davomida qabul qilingan hujjatlar mazmunidan ham ko'rish mumkin.

Aholisi nuqtai nazaridan, Turkiya bugun 80 milliondan ziyod, O'zbekiston esa 40 millionga yaqin. Ya'ni dunyo turkiylarining yarmidan ko'prog'i ayni shu ikki davlat hududida istiqomat qiladi. Shu jihatdan ham ushbu ikki mamlakat turkiy dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari, holati va hatto orzu-umidlari ham belgilab beruvchi ikki katta kuch hisoblanadi.

Alohida ta'kidlash joiz, O'zbekiston — Turkiya munosabatlari Yangi O'zbekiston islohotlari davrida butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Ayni paytda Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston, umuman, mintaqa davlatlarining uzoq va yaqin muddatdagi manfaatlarini yaxshi bilgan yetakchi sifatida ham turkiy dunyoning o'zaro rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasining yirik bir davlati sifatida Turkiya, Ozarbayjon, Kaspiyorti mamlakatlari, turkiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarini yangi davrga olib chiqib, hatto Markaziy Osiyoning uzoq yillar qulflanib qolgan eshiklarini ocha oldi.

Bugun turkiy dunyo hamkorligi nafaqat turkiy tili davlatlar xavfsizligini, balki bugungi geosiyosiy to'qnashuvlar davrida Yevroosiyo qit'asining osoyishtaligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga egadir.

Asrlarga bo'yashgan do'stlik

Robaxon MAHMUDOVA,
«Adolat» SDP fraksiyasi rahbari:

— Anqara shahrida o'tgan oliy darajadagi muzokaralar, Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi yakunlari bo'yicha imzolangan qo'shma bayonot va ko'p qirrali bitimlar to'plami ushbu aloqalarimizning institutsional asoslarini yanada mustahkamladi.

Siyosiy muloqotning jadal rivojlanayotgani, xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan

pozitsiyalarning o'xshash ekani bilan ham bog'liq. Zero, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyotining davom ettirilayotgani tinchlik, adolat va barqaror taraqqiyotga qaratilgan umumiy maqsadlar uyg'unligidan dalolat beradi.

Muzokaralar jarayonida ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot, aholi farovonligini oshirish, ish o'rinalarini yaratish, hududlarni barqaror rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgani e'tiborga molik.

Qolaversa, sog'liqni saqlash, ta'lim, harbiy tibbiyot, migratsiya, madaniyat, yadro xavfsizligi va radiatsion himoya sohalarida imzolangan bitimlar ham hamkorlik mohiyatida inson hayoti va xavfsizligi ustuvor ekanini ko'rsatmoqda. Bu hujjatlar fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xavfsiz mehnat va yashash muhitini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardir.

Tashrif doirasida "O'zbekiston" turarjoy majmuasi foydalanishga topshirildi. Hatay viloyatida uch yil avval yuz bergan vayronkor zilzila qardosh turk xalqi uchun og'ir sinov bo'lgani hamon yodimizda. O'sha iztirobli kunlarda mamlakatimiz birinчилardan bo'lib yordamga shoshildi. Xalqimizga xos insonparvarlik, hamdardlik tamoyillarining yorqin ifodasi sifatida o'zbekistonlik qutqaruvchilar va tibbiyot xodimlari jasorat ko'rsatishdi. Arsu z tumanida barpo etilgan zamonaviy turarjoy majmuasi esa o'sha fojida boshpanasiz qolgan qardoshlarimizga ko'rsatilgan amaliy yordamning qandiqiy davomi bo'ldi.

«Adolat» sotsial-demokratik partiyasi ushbu tashrif natijalarini yuqori baholaydi.

Hamkorlikning oliy darajasi

Ulug'bek INOYATOV,
O'ZDXP fraksiyasi rahbari:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga bu galgi rasmiy tashrifi rang-barang muloqot va o'zaro manfaatli kelishuvlarga boy bo'ldi. Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining

to'rtinchi yig'ilishi har tomonlama yuqori maqomda o'tdi.

Bularning barchasi mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona hamkorlik muntazam ravishda rivojlanib borishini anglatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyoti davom ettirilishi qardosh xalqlarimizning uzoq muddatli manfaatlariga har tomonlama to'g'ri keladi.

Turkiya Respublikasi ijtimoiy masalalarni samarali hal etib borish, barcha fuqarolarning ustuvor huquqlarini ta'minlab, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligiga qulay sharoit yaratish bo'yicha yuqori natijalarga erishayotgan mamlakatlardan hisoblanadi. Ta'lim, zamonaviy kasb-hunarlar, bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy himoyani yanada tizimlashtirish yo'nalishlarida o'zaro o'rganish va fikr almashishni kengaytirish muhim.

Anqara shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an tomonidan Qo'shma bayonot hamda Keng qamrovli strategik sheriklik doirasidagi hamkorlik mexanizmlari to'g'risidagi qarorning imzolinishi ikki davlat munosabatlarida yangi, yanada mustahkam bosqichni boshlab berdi.

ANIQ NATIJAGA YO'NALTIRILGAN KELISHUVLAR



Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston — Turkiya hamkorligining izchil rivojlanib, strategik sheriklik darajasiga

ko'tarilishi, avvalo, O'zbekiston yetakchisining ochiq, pragmatik va qardosh xalqlar manfaatlariga qaratilgan tashqi siyosati natijasi ekanini alohida ta'kidlash joiz. Davlat rahbarining tashabbuslari va siyosiy irodasi tufayli Turkiya bilan munosabatlarda barcha sohada mazmunan boyib, aniq amaliy natijalar bilan mustahkamlandi.

Xususan, davlatlararo shakllangan o'zaro ishonch va do'stona munosabatlarni bugun O'zbekiston hamda Turkiya xalqlari o'rtasidagi azaliy qardoshlik, tarixiy yaqinlik va ma'naviy uyg'unlikning yorqin ifodasiga aylandi. Bu aloqalar nafaqat siyosiy muloqotlarda, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-gumanitar sohalarida ham o'z ifodasini topyapti.

Shu jihatdan, imzolangan ikki tomonlama hujjatlar to'plami ko'p qirrali sheriklikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash, ta'lim

va harbiy tibbiyot, iqtisodiy hamda moliyaviy hamkorlik, konchilik sanoati, xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish, maxsus iqtisodiy zonalar, yadro xavfsizligi, migratsiya, diniy sohadagi sheriklik kabi muhim yo'nalishlarni qamrab olgan kelishuvlar munosabatlarni qanchalik chuqur va keng qamrovli ekanini ko'rsatadi.

O'z navbatida, Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi 2026-2027 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, madaniyat yo'nalishidagi kelgusi rejalar, ta'lim va sanoat sohalaridagi bayonnomalar xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ochiq hamda faol tashqi siyosati Turkiya bilan munosabatlarni qardoshlik, o'zaro hurmat va strategik manfaatlariga asoslangan mustahkam ittifoqqa aylantirdi. Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi yaqin aloqalar esa xalqlarimiz do'stligini yanada mustahkamlab, kelgusida ham bu hamkorlik yangi yutuqlar bilan boyib borishiga ishonch uyg'otadi.

Abduvohid TURDIBOYEV,
xalq deputatlari
Chinoz tumani Kengashi raisi.

Tashrif doirasida qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, sog'liqni saqlash va tibbiy turizm sohalarida Turkiyaning ilg'or tajribasini joriy etish masalasiga e'tibor qaratilgani bejiz emas. Yurtimiz iqtisodiyoti, xalqimizning faol ijtimoiy hayoti, ortib borayotgan talabchanligi va tabiiy ehtiyojlari xalqaro standartlar darajasida rivojlanishni taqozo qilmoqda.

Partiyamiz, deputatlik birlashmalarimiz xalqimizning ijtimoiy hayotiga bevosita bog'liq bo'lgan do'stlik, hamkorlik munosabatlarini faol qo'llab-quvvatlaydi. Ayni paytda strategik kelishuvlar amalga oshishi jarayonlarida faol ishtirok etadi.

Qardoshlik va hamjihatlik ramzi

Abdushukur HAMZAYEV,
O'zbekiston Ekolik partiyasi fraksiyasi
rahbari:



— Anqara shahrida bo'lib o'tgan oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi ikki davlat o'rtasidagi sheriklik tizimlari va uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilganini ko'rsatdi.

Muzokaralar yakunida erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Turkiyaning bir-birini ishonchli strategik hamkor sifatida qabul qilayotganini tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari tomonidan Turkiyaning global miqyosdagi nufuzi va rivojlanish salohiyatiga berilgan yuksak baho ham o'zaro hurmat va teng sheriklikka asoslangan munosabatlarning ifodasidir.

Shu bilan birga, hamkorlik mexanizmlarini yanada faollashtirish, kengash yig'ilishlarini muntazam o'tkazish va qabul qilingan qarorlarni aniq "Yo'l xaritasi" asosida amalga oshirishga kelishib olingani munosabatlarning deklarativ emas, amaliy tus olayotganini ko'rsatadi.

Dunyoda ro'y berayotgan tabiiy injiqliklari, tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq hodisalar hamda hamjamiyatni jiddiy xavotirga qo'yimoqda. Bu kabi o'tkir muammolarga qarshi birgalikda kurashish mexanizmini ishlab chiqish hamda o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Shu bois bu bo'yicha jahon xalqlari bir-birlarga, albatta, yordamchi bo'lishlari kerak. Alohida ta'kidlash joizki, og'ir sinovli damlarda namoyon bo'lgan o'zaro qo'llab-quvvatlash O'zbekiston — Turkiya munosabatlarning asosiy ustuni ekanini ko'rsatdi.

Tashrif doirasida Istanbul shahrida o'zbek maktabi qurilishiga start berilgani esa ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik faqat siyosat va iqtisodiyot bilan cheklanmasdan, ta'lim, ma'naviyat va madaniy aloqalarni ham qamrab olayotganining yaqqol dalilidir. Bu ta'lim dargohi Turkiyada yashovchi o'zbek farzandlarining milliy o'zligini asrab-avaylash, ona tili va qadriyatlariga sodiq bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Mazkur tashrif O'zbekiston — Turkiya munosabatlari mustahkam siyosiy iroda, o'zaro ishonch va qardoshlik ruhi asosida yanada chuqurlashayotganini ko'rsatdi. Bu esa kelgusida ikki xalq manfaatlarini yo'lida qo'shma tashabbuslar va amaliy natijalar yanada ortadi degan ishonchni mustahkamlaydi.

«Xalq so'zi».

Oʻzbekiston – Pokiston:

OʻZARO MANFAATLI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan faol tashqi siyosat tufayli soʻnggi yillarda Oʻzbekistonning xorijiy davlatlar bilan oʻzaro manfaatli doʻstona aloqalari tobora mustahkamlanmoqda. Xususan, Oʻzbekiston – Pokiston munosabatlari, ayniqsa, iqtisodiy yoʻnalishda yangi surʼat bilan rivojlanayotganini koʻrishimiz mumkin. Bunda ikki davlat iqtisodiyotining oʻzaro raqobatchi emas, balki bir-birini toʻldiruvchi ekani muhim omil boʻlmoqda. Shu maʼnoda, mamlakatlar oʻrtasidagi hamkorlikni yuqori darajaga koʻtarish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Biz va jahon

Avvalo, Pokistonning jugʻrofiy joylashuvi Oʻzbekistonga Arab dengiziga chiqish uchun eng qisqa savdo yoʻnalishini taqdim etadi. Pokiston orqali savdo qilish Oʻzbekiston uchun dengizga chiqishning eng samarali yoʻli hisoblanadi. Xuddi shunday, Markaziy Osiyo bozorlari bilan oʻzaro munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladigan aloqalarni oʻrnatish Pokistonning asosiy maqsadlaridan biri.

Ikki mamlakat yetakchilarining muntazam muloqotlari tufayli aloqalar strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Transport, qishloq xoʻjaligi, yengil sanoat, farmatsevtika va boshqa tarmoqlardagi hamkorlik jadal rivojlanib bormoqda. Oʻzaro savdo hajmini yaqin istiqbolda 1 mlrd. dollarga yetkazish boʻyicha “Yoʻl xaritasi” qabul qilingan. Avvalo, savdo, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, transport, logistika, infratuzilma va turizm sohalarida hamkorlik boʻyicha qoʻshma loyihalarni amalga oshirishga, madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini kengaytirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Islomobodga va Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning oʻtgan yili Toshkentga tashriflari doirasida oʻtkazilgan biznes-forumlar, tadbirkorlar oʻrtasidagi muloqotlar chogʻida toʻqimachilik, farmatsevtika, qurilish materiallari, bank-moliya, kimyo sanoati va boshqa yoʻnalishlarda oʻnlab savdo va investitsiya loyihalari boʻyicha kelishuvlarga erishilgan edi. Bu loyihalarining barchasi sanoat kooperatsiyasi dasturiga kiritilib, qatʼiy nazoratga olingan. Shuningdek, oliy darajali tashriflar chogʻida imzolangan hamda kuchga kiritilgan Transitz savdo hamda Imtiyozli savdo toʻgʻrisidagi bitimlar ikki xalqning farovon hayotini taʼminlashga, milliy iqtisodiyotlarimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qilyapti.

Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar temir yoʻli bizning umumi kelajagimizdir. Bu yoʻl bitsa Pokistonni Markaziy Osiyo bilan bogʻlaydigan, Oʻzbekistonni Karachi, Gvadar va Qosim portlariga olib chiqadigan eng yaqin, arzon va xavfsiz yoʻlak yaratiladi. Markaziy va Janubiy Osiyoning oʻzaro bogʻliqligini mustahkamlashga qaratilgan, “asr loyihasi” deb atalayotgan mazkur temir yoʻlini qurish nafaqat mamlakatlarimiz, balki butun mintaqaga xalqlari umumiy ravnaqiga hissa qoʻshadi. Natijada mintaqaviy savdo, iqtisodiy hamkorlik rivojlanadi. Temir yoʻlining

uzunligi taxminan 760 kilometr boʻlib, uchta davlatni bir-biri bilan bogʻlaydi. Transafʻon temir yoʻli ishga tushgach, Pokistondan Oʻzbekistonga yuk tashish muddati 35 kundan 3 – 5 kungacha qisqaradi. Bitta standart konteynerni tashish narxi qariyb uch barobar arzonlashishi kutilmoqda. Bundan tashqari, yana bir transport yoʻlagi loyihasi ustida ish olib borilyapti. Bu Belarus, Rossiya, Qozogʻiston, Oʻzbekiston, Afgʻoniston va Pokiston orqali oʻtuvchi multimodal transport yoʻlagini yaratish boʻyicha kelishuv boʻlib, mazkur loyiha orqali ham yuk tashish jarayoni osonlashadi, vaqti qisqaradi.

Hozirda Pokiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda ShHT doirasida terrorizm va narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda ishtirok etmoqda. Dunyoda geosiyosiy keskinlik kuchaygan, terrorizm bosh koʻtarayotgan bir paytda bu boradagi aloqalardan har ikki tomon ham manfaatdor. Shu maʼnoda, Afgʻonistonda doimiy tinchlik va barqarorlik boʻlishi muhim. Gap shundaki, uzoq yillar Afgʻoniston omili Pokistonning Markaziy Osiyodagi manfaatlari va ular bilan qalin sheriklik munosabatlari yoʻlidagi asosiy toʻsiq boʻlib kelgan. Endi esa tinch Afgʻoniston imkoniyatlar oʻlkasiga aylanayapti. “Janub sari yoʻl” – Afgʻoniston orqali Pokiston va Hindiston portlariga chiqish, qolaversa, janubimizda joylashgan qariyb ikki milliard nafusga ega bozorga kirish imkoniyati, degani. Oʻzbekistonning tashqi siyosatdagi koʻp vektorli formatga oʻtishi iqtisodiyotimizning logistik jihatdan qaramligiga barham beradi.

Ochigʻin aytganda, 2016 yilgacha Markaziy Osiyo mamlakatlarida Islomobodga nisbatan ehtiyotkorona munosabat mavjud edi. Mintaqa davlatlari rasmiylari Afgʻonistondagi notinchlikdan xavotirda ekani vaziyatni yanada murakkablashtirayotgandi. Ammo davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ochiqchilika va pragmatizmga asoslangan tashqi siyosati tufayli hammasi oʻzgardi. Afgʻonistonda qaror topgan birmuncha osoyishtalik va tinchlik Markaziy Osiyo davlatlari hamda Pokiston oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy

aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratdi. Baʼzi iqtisodiy loyihalar allaqachon amalga oshirilmoqda. Logistika, biznes, taʼlim sohalaridagi hamkorlik ham izchil rivojlanib boryapti.

Madaniy-gumanitar soha sheriklikning eng muhim va istiqbolli yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilab olingan. Qadimiy Buyuk Ipak yoʻli chorrahasida joylashgan Oʻzbekiston va Pokiston xalqlarini azaldan umumiy tarix va boy maʼnaviy meros chambarchas bogʻlab turadi. Har ikki mamlakat ham fan, sanʼat, kino, sport sohalaridagi aloqalarni kengaytirish, yoshlarga oid dasturlarni amalga oshirish tarafdori. Oʻzbekistonda yil sayin urdu tilini oʻrganishga qiziqish ortib borayotir. Pokistonda ham Islomobod zamonaviy tillar universiteti, Panjob va Peshovar universitetlari kabi oliy taʼlim muassasalarida oʻzbek tili va adabiyoti, Oʻzbekiston tarixini oʻrganishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzaro taʼlim dasturlari doirasida ikki davlat universitetlari oʻrtasida hamkorlik memorandumlari imzolangan.

Oʻzbekiston rahbarining toʻrt yil oldin Islomobodga tashrfi davomida salmoqli hujjatlar toʻplam, jumladan, Strategik sheriklikni rivojlantirish boʻyicha kelgusi qadamlar toʻgʻrisida qoʻshma deklaratsiya imzolangan edi. Unda mamlakatlarimiz oʻrtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan saʼy-harakatlar belgilab olingan. Maʼnaviy ildizlardan kuch va ilhom olayotgan aloqalar xalqlarimizning orzu-intilishlariga, ikki davlat oʻrtasidagi ulkan rejalarga mos ravishda yangi marallarga koʻtarilmoqda. Masalan, 2025 yil 3 yanvar kuni Karachi shahrida “UzbekPak International Trading Centre” savdo uyi va “UzbekPak Cultural Centre” madaniy markazining ochilishi mintaqaviy bogʻliqlikni mustahkamlash, oʻzaro savdo hajmini oshirish va investorlar uchun zarur maʼlumotlar taqdim etishga xizmat qiladi.

Turizm mamlakatlarimiz salohiyatidan foydalanishda muhim oʻrin tutadi. Turistik oqimni ragʻbatlantirish maqsadida ikki davlat oʻrtasida viza tartibi yengillashtirildi, toʻgʻridan-toʻgʻri aviataqtnovlar yoʻlga qoʻyildi. Bu oʻzaro aloqalarga yangicha mazmun baxsh etadi. Ishlabarmonlar uchun vaqt eng qimmatbaho neʼmat, qancha tiklanmas resurs hisoblanadi. Ochilayotgan yangi havo yoʻllari ikki mamlakat tadbirkorlarining qimmatli vaqtini tejab, aloqalarni jadallashtiradi va yangi qoʻshma loyihalarga xizmat yaratadi.

Yana bir eʼtiborli jihat. Pokiston Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlib kirishiga xayrixoh. Bu borada 2024 yil 6 dekabr kuni Oʻzbekiston va Pokiston oʻrtasida mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga qoʻshilishini qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida memorandum imzolandi. Ushbu hujjat JSTga qoʻshilish jarayonida Oʻzbekiston tomonidan olib borilayotgan islohotlar, xalqaro savdo tizimiga integratsiya boʻyicha mamlakatning jiddiy saʼy-harakatlari tan olinishini tasdiqlaydi. Oʻzbekiston Pokiston uchun Markaziy Osiyo bozoriga kirish yoʻlida darvoza, shuningdek, Rossiya va

Yevropaga chiqishda muhim tranzit davlat hisoblanadi.

Pokiston – aholi soniga koʻra dunyoning beshinchi yirik mamlakati. Yalpi ichki mahsuloti xarid qobiliyati pariteti boʻyicha dunyoda 23-oʻrinni egallaydi. Shu bilan birga, Pokiston toʻqimachilik sanoati, bugʻdoy, paxta, sholi yetishtirish borasida yetakchilardan. Axborot texnologiyalari sektori ham katta salohiyatga ega. Bu sohalarida mamlakatlarimiz hamkorligi bir-birini toʻldiruvchi boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Pokiston Janubiy Osiyoda shakllangan mintaqaviy xavfsizlik vaziyati, shuningdek, ichki va tashqi omillar tufayli iqtisodiy noaniqlik, siyosiy beqarorlik va chuqur ijtimoiy nomutanosiblik kabi oʻzaro bogʻliq muammolarga duch kelgan muhim chorrahada turibdi. Pokistonning yangi hukumati ushbu muammolar dolzarbligini tan olgan holda, Bosh vazir Shahboz Sharif rahbarligida iqtisodiy oʻzgarishlarni nazarda tutgan aloqalar loyihalarni boshlagan. 2024 – 2035 yillarda amalga oshirilishi moʻljallangan iqtisodiy oʻzgarishlar rejası – “URAAAN Pakistan” eʼlon qilindi. Mamlakatni dunyoning yetakchi iqtisodiyotlaridan biriga aylantirish maqsadi jamlangan ushbu tashabbus doirasida innovatsiya, inklyuzivlik va barqarorlikka ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, adolati, barqaror va inklyuziv jamiyati rivojlantirish orqali Pokistonni Osiyoning navbatdagi “yoʻlbarsi” darajasiga koʻtarish intilishlar markaziga chiqqan.

“URAAAN Pakistan” strategiyasida eksport, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va mamlakatning jahon bozorida mavqeyini oshirish markaziy oʻrinni egallaydi. Hukumat innovatsiyani qoʻllab-quvvatlash, investitsiyalar jalb qilish, mahsuldorlikni kuchaytirish orqali muvaffaqiyatga erishishga intilmoqda. Toʻqimachilik, qishloq xoʻjaligi va texnologiya kabi sohalarida foydalanilmagan ulkan salohiyatga ega Pokiston bunday yondashuv orqali sezilarli iqtisodiy oʻsishga erishish uchun yaxshi poydevorga ega. Buning uchun ayni paytda diplomatik imkoniyat toʻliq safarbar qilingan, rasmiy tashriflar, diplomatik aloqalar yordamida muhim sheriklar bilan hamkorlik va oʻzaro ishonchni yangi bosqichga koʻtarish ustida ish olib borilmoqda.

Hozir Pokiston oʻzaro manfaatli hamkorlikka har qachongidan koʻra ochiq va tayyorligini namoyon etmoqda. Oʻzbekiston uchun bu ikki davlat oʻrtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar hamkorlikni yangi pogʻonaga olib chiqishda noyob imkoniyat. Pokiston iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay strategik ahamiyatli, ulkan bozori va harbiy qudrati bilan mintaqaviy hamda global siyosatda oʻz oʻrniga ega. Oʻzbekiston va Pokiston hamkorligi nafaqat ikki qardosh xalq farovonligiga, balki butun mintaqada barqarorlik va izchil rivojlanishga xizmat qiladi.

Qalandar ABDURAHMONOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik.

RAQAMLI KELAJAK UCHUN YANGI «YOʻL XARITASI»

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti nafaqat tabiiy resurslar, balki maʼlumotlar va algoritmlar ustiga qurilmoqda. Shu sababli, hozirgi global iqtisodiyotda raqobatda chidamli boʻlish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutmaslik lozim.

Nuqtai nazar



Mamlakatimizda IT, sunʼiy intellekt (SI), fintex, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servislarni koʻpaytirish, qishloq xoʻjaligida unumdorlikni oshirish uchun biomuhandislikdan keng foydalanish, ilgʻor agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qoʻllash, “yashil” energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga oʻtish kabi maqsadlar kun tartibiga qoʻyilgan. Bu esa kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 mlrd. dollardan oshirish imkonini beradi.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida oʻtkazilgan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026 yilga moʻljallangan ustuvor vazifalarga bagʻishlangan taqdimotda belgilab berilgan muhim yoʻnalishlar yurtimizning raqamli kelajagi uchun yangi “Yoʻl xaritasi” boʻlib xizmat qiladi. Endilikda mamlakat raqamlashtirish sohasida faqatgina boshqalarga yetib olish emas, balki mintaqada trendlarni belgilash va yetakchi boʻlish bosqichiga oʻtdi.

Oʻzbekistonning startap ekotizimi soʻnggi yillarda misli koʻrilmagan oʻsish dinamikasini koʻrsatdi. Ekspertlar baholashiga koʻra, sohaning qiymati 3,9 mlrd. dollarga yetgani bu shunchaki raqam emas, balki xalqaro investorlarning mamlakatimiz intellektual salohiyatiga boʻlgan ishonchidir. 750 dan ortiq startap hamda 180 mln. dollardan ortiq venchur investitsiyalari, bu – poydevor xolos. 2030 yilgacha belgilangan 5000 ta startap maqsadi esa mamlakatimizni “innovatsiyalar fabrikasi”ga aylantirishni koʻzda tutadi.

Islohotlarning xalqaro eʼtirofi

Aytish joizki, 2026 yilning yanvar oyi yurtimiz uchun tarixiy xushxabar bilan boshlandi. Oʻzbekiston dunyodagi eng tez oʻsayotgan ikkinchi startap ekotizimi va Markaziy Osiyoning mutlaq yetakchisi sifatida eʼtirof etildi. Bu shunchaki reyting emas, balki oxirgi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlarning xalqaro tan olinishidir.

Eng muhimi, maqsad nafaqat sonda, balki sifatda ham namoyon boʻlmoqda. 200 ta startapning eksport

bozorlariga chiqishi mamlakatimizning intellektual mahsulot yetkazib beruvchi global ishtirokchiga aylanishini anglatadi. Ikki mlrd. dollarlik venchur investitsiyalari esa Oʻzbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va istiqbolli davlat sifatida mustahkamlaydi.

Oʻzbekistonning startap ekotizimi soʻnggi yillarda misli koʻrilmagan oʻsish dinamikasini koʻrsatdi. Ekspertlar baholashiga koʻra, sohaning qiymati 3,9 mlrd. dollarga yetgani bu shunchaki raqam emas, balki xalqaro investorlarning mamlakatimiz intellektual salohiyatiga boʻlgan ishonchidir.

Kezi kelganda aytmoqchimizki, Oʻzbekiston joriy etayotgan toʻrt bosqichli yangi tizim sohadagi muammolarga yechim berdi. Bunda ilk qadamlarni grantlar bilan tashlash, mahsulotni yaratish uchun soliq imtiyozlari berish, qoʻshma moliyalashtirish orqali bozorga kirishni tezlashtirish, eksport xarajatlarini qoplash bilan xalqaro maydonga olib chiqish muhim yoʻnalish sifatida belgilab olindi. Bunday yaxlit janjir yosh tadbirkorlarga nafaqat sarmoya, balki muvaffaqiyatga boʻlgan institutsional kafolatlarni ham taqdim etdi.

Xizmat koʻrsatishdan intellektual modelgacha

Elektron hukumat sohasida Oʻzbekiston xizmat koʻrsatish modelidan intellektual modelga oʻtayotgani ham katta yutuq. Raqamli xizmatlar sonini 900 taga yetkazish va 50 dan ortiq xizmatlarda sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish davlat idoralarini fuqaroga yanada

yaqinlashtiradi. Endilikda bank kartasini ochish, SIM-karta olish yoki sugʻurta rasmiylashtirish uchun navbatlarda turish xavfiga aylanadi. Hammasi “my.gov.uz” mobil ilovasida bir necha soniyada hal boʻladi.

Tadbirkorlikni yoʻlga qoʻyish hamda xodimlarni hisobga olish kabi murakkab jarayonlarning raqamlashtirishi “yashirin iqtisodiyot”ga chek qoʻyib, biznes muhitini shaffoflashtiradi. Joriy yilda tashlangan bu qadamlar 2030 yilga borib Oʻzbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki jahonning eng ilgʻor texnologik markazlaridan biriga aylantiradi. Biz dunyodagi ikkinchi eng tez oʻsayotgan ekotizim boʻlishdan toʻxtamaymiz, maqsad – birinchilikka erishish.

Oʻzbekistonning milliy sunʼiy intellekt infratuzilmasini yaratish, jumladan, superkompyuterlar xarid qilish va 15 ta SI laboratoriyasini tashkil etish rejası mamlakatning texnologik mustaqilligini taʼminlaydi. Shaxsiy maʼlumotlarni mahalliy

yurtimizda tatbiq etiladigan zamonaviy superkompyuterlar tarixiy ahamiyatga ega. Bu qurilmalar shunchaki texnika emas, balki milliy SI ekotizimining dvigateli hisoblanadi. Ular orqali mahalliy til modellarini oʻqitish, murakkab iqtisodiy prognozlarini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlarni rekord darajadagi qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkoni tugʻiladi.

Taʼlim va ishlab

chiqarish integratsiyasi

Taʼkidlash joizki, ilgʻor texnologiyalarni sotib olishning oʻzi bilan kifoyalanib boʻlmaydi. Uni boshqaradigan va yangi yechimlar yaratadigan mutaxassislar kerak. Shu maʼnoda, 15 ta oliy taʼlim muassasasida SI laboratoriyalarining tashkil etilishi taʼlim va ishlab chiqarish oʻrtasidagi uzviylikni taʼminlaydi. Bu laboratoriyalar milliy SI mahsulotlarini yaratish, yosh dasturchilarning global bozorda raqobatbardosh boʻlishini taʼminlash, davlat boshqaruvi va iqtisodiyot uchun aqlli yechimlar ishlab chiqish markazlariga aylanadi. Qolaversa, infratuzilma faqat kompyuterlardan iborat emas. Maʼlumotlarning tezkor almashinuvi uchun sifati aloqa zarur. Shu yilda “5G” texnologiyalarini keng joriy etish va aholi punktlarini yuqori tezlikdagi internet bilan qamrab olish darajasini oshirish – bu SI tizimlarining “asab tolalari”ni shakllantirish, demakdir. Sunʼiy yoʻldosh aloqasidan foydalanishni kengaytirish rejası esa mamlakatning eng chekka hududlarini ham raqamli taraqqiyot janjiriga ulaydi. Bu raqamli tengsizlikni bartaraf qilish yoʻlidagi eng samarali qadamdir.

Darvoqe, data-markazlar tarmogʻini kengaytirish va maʼlumotlar xavfsizligini taʼminlash masalasi davlatimiz rahbari tomonidan alohida taʼkidlandi. Raqamli dunyoda maʼlumotlar – bu yangi “neft”dir. Ularni mahalliy data-markazlarda saqlash hamda himoya qilish mamlakatning axborot suverenitetini va fuqarolarning shaxsiy daxlsizligini kafolatlaydi.

Raqamli texnologiyalar shunchaki qulaylik emas, balki iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish va aholi hayoti sifatini yaxshilash vositasi. Joriy yil uchun belgilangan ushbu vazifalar mamlakatimizning Markaziy Osiyodagi texnologik yetakchiligini taʼminlash bilan birga, yurtimizni global raqamli xaritada muhim xabga aylantirishga xizmat qiladi.

Yangi Oʻzbekistonning raqamli strategiyasi endi nazariyadan amaliyotga – aniq hisoblash quvvatlari va yuqori texnologiyalar bosqichiga oʻtdi. Sohadagi bunday katta oʻzgarishlar kelgusida ulkan natijalarga poydevor boʻladi, albatta.

Baxtiyor MAHKAMOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.



BU OYDAN BOSHLAB NIMALAR OʻZGARADI?

Mamlakatimizda 1 fevraldan kuchga kiradigan qonunchilikdagi oʻzgarishlar nimalardan iborat? Quyida shular xususida ayrim maʼlumotlarni taqdim etamiz.

Ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishning yangi amaliyoti

“Tashabbusli byudjet” jarayonlarida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni aholi va davlat oʻrtasida sheriklik asosida moliyalashtirish amaliyoti joriy etiladi.

Tashabbuskor aholi tomonidan loyihalar qiymatining 50 foizi ixtiyoriy ravishda moliyalashtirilganda loyihalar gʻolib deb topiladi hamda qolgan 50 foizi respublika byudjetidan moliyalashtiriladi.

Kimlar harbiy xizmatni bepul oʻtashi mumkin?

Kambagʻal oilalar reestriga kiritilgan oilalardagi yoshlar uchun safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni bepul oʻtash tartibi joriy etiladi.

Ushbu maqsad uchun subsidiya ajratish tartibi bekor qilinadi.

Bunda harbiy xizmat bilan bogʻliq xarajalar Mudofaa vazirligining “Safarbarlik chaqiruvi rezervi mablagʻlari” maxsus hisobvaragʻidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, harbiy xizmatni oʻtab kelgan yoshlarning bandligini taʼminlash choralari koʻriladi.

«Davlat taʼminotidagi oila»lar uchun ijtimoiy yordam paketi

“Davlat taʼminotidagi oila” toifasiga kiritilgan oilalar uchun quyidagilarni oʻz ichiga olgan ijtimoiy yordam paketi joriy etiladi:

ushbu oilalar xonadoniga quvvat 7 – 10 kVtlik quyosh panellarini oʻrnatish uchun BHMning 100 baravarigacha subsidiya ajratiladi. Shuningdek, ushbu oilalarga tijorat banklari orqali 4 yilgacha BHMning 75 baravarigacha – oilaning mehnatga layoqatli aʼzolarining bandligini taʼminlash, tadbirkorlikni boshlash yoki kengaytirish, shu jumladan, chorva mollari, parranda, quyon, baliq va asalari uyasi, koʻchma doʻkonlar, motoroller, skuter va boshqa asosiy vositalarni sotib olish yoki issiqxona qurish maqsadlari uchun kredit ajratiladi.

Kredit 1 yillik imtiyozli davr bilan “davlat taʼminotidagi oila” toifasidagi oila aʼzosiining ijtimoiy kartasiga oʻtkaziladi. Kredit foiz stavkasi Oʻilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasidagi foiz stavkasiga hisoblanadi.

«Kitob – maʼrifat manbai» dasturi amalga oshiriladi

Aholi, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish boʻyicha “Kitob – maʼrifat manbai” dasturi amalga oshiriladi.

Davlat organlarining kitob va kitobxonlik haqidagi reklamalari ijtimoiy axborot (reklama) sifatida tan olinadi.

Shu bilan birga, jamoat transportlarida (avtobus, metro, samolyot, poyezdlar) simsiz yoki mobil internet tarmogʻi orqali “Mutolaa” platformasidan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi, qulaylik uchun QR kodlar oʻrnatiladi.

Haydovchilik

guvoohnomasini olish uchun navbatdagi imkoniyat

Kambagʻal oilalar reestriga kiritilgan oilalardagi yoshlarga “Yoshlar daftari” jamgʻarmalari orqali avtomototransportlar haydovchilarini tayyorlash oʻquv kursi xarajatlarini qoplash boʻyicha subsidiya haydovchilik guvoohnomasining “A”, “B”, “D” va “DE” toifalarini olish uchun toʻlab beriladi.

«Xalq soʻzi».

Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga

BUYUK SHOIRNING SAMARQANDDAGI TABARRUK IZLARI

Samarqand shahri, uning muhiti va maktabi ne-ne buyuk shaxslar hayotida yuksak oʻrin tutadi. Alisher Navoiy hazratlari ham oʻz asarlarida ushbu qadimiy kentda oʻtgan umri, oʻrttirgan doʻstlari va maʼnaviy muhitni alohida mehr bilan koʻp bor yodga oladi. Navoiyshunos olim, Samarqand davlat chet tillari universiteti professori Dilorom SALOHIIY bilan suhbatimiz buyuk shoirning ushbu tabarruk zaminda qolgan izlari haqida boʻldi.



– Samarqandda Alisher Navoiy hayotining eng joʻshqin davri kechgan, – deydi Dilorom Salohiy. – U bu yerga mashhur shoir boʻlib kelgan. Samarqand hokimi Ahmad Hojiybek Vafoiy uni oʻz martabasiga munosib tarzda izzat-ikrom qilgan. Yirik olimlar unga dars berganlarida alohida eʼtibor bilan munosabatda boʻladi.

Samarqand – hazrat Navoiyning Mashhadda Shayx Kamol Turbatiy, Pahlavon Muhammad vositasida shakllana boshlagan falsafiy-maʼrifiy, diniy-tasavvufiy qiziqishlari bir oʻzanga tushishiga yoʻl ochgan, bu sohadagi dunyoqarashi shakllanishiga imkon yaratgan shaharlardan biri. Akademik Botirxon Valixojayev xulosalariga koʻra, hazrat Navoiy Hirotdan chiqib ketishni niyat qilar ekan, qaysi shaharni tanlash oʻzining ixtiyorida edi. Ul zot Kamol Turbatiydek, Pahlavon Muhammaddek doʻstu yorlari bor boʻlgan shahar – Mashhadni tanlashi ham mumkin edi. Buning ustiga, shoir Hirotdan ketar paytlari maʼnaviy otaxoni Sayyid Hasan Ardasher ham Mashhadda edi. Ammo Navoiy Samarqandni tanladi. Chunki bu yerda aqli kamolga yetgan, qalamining shuhrati keng yovilgan yosh shoirni mehriygo singari oʻziga tortib turgan yangi ilmi irfon dargʻasi, piri komil Hazrati Xoja Ahror Vali bor edi.

Navoiyshunos olim B. Valixojayev Alisher Navoiyning Shayx Xoja Ahror Vali nazariga tushishi, uning iltifotiga musharraf boʻlishi, yirik faqih Xoja Fazlulloh Abullays Samarqandiy va uning oilasi bilan munosabatlari, Samarqandda yaratilgan yoki bu shahar bilan bogʻliq asarlari xususida fikr yuritadi. U oʻzigacha yaratilgan tadqiqotlarni toʻldirishga, yangi ilmiy maʼlumotlar bilan boyitishga intilarkan, shoirning naqshbandiya tariqatiga rasman kirishi ham ushbu koʻhna kent bilan bevosita bogʻliq edi, degan fikrni oʻrtaga tashlaydi. Olim Navoiyning samarqandlik yoru birodarlari, eng qadri hamsabiq doʻstlari bilan munosabatlari ham nazardan qochirmaydi.

Alisher Navoiy oʻzining Hirotdan chiqib ketishi sabablarini soʻzlab, ustozii Sayid Hasan Ardasherga yoʻllagan mashhur “Masnaviy”sida bir tolibi ilmining muvofirligidagi qiyinchiliklarini bayon etarkan, bevosita oʻz hayoti tafsilotlariga ishora qiladi.

– Ulugʻ shoir yashagan Samarqanddagi Abullaysiylar xonadoni hozir ham bormi?

– Abullaysiylar xonadonining sobihi XV asr ikkinchi yarmida Samarqandda faoliyat koʻrsatgan, ilm-fan va adabiyot sohasida koʻzga koʻringan vakili – Xoja Fazlulloh Abullaysiy edi. Bu fozil shaxs haqida hozircha juda kam maʼlumot yetib kelgan. Ammo manbalarda Xoja Fazlulloh Abullaysiy “Movarounnahr akobirlaridan biri” (Abdurazzoq Samarqandiy), davrining Abu Hanifai soniysi (Alisher Navoiy), Ibn Hojiy, Abu Ali Sinosi (Xondamir), xullas, aʼlami ulamosi tarzida tilga

olinadi. U Mirzo Ulugʻbek nazdida juda eʼtibori allomlardan edi. Xoja Fazlulloh Abullaysiy Samarqanddagi ajdodlari yashagan Al-Faqih Abullays guzarida bino qilingan xonaqosida tolibi ilmlarga fiqh, tib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik boʻyicha dars bergan. Tolib ilmlar qatorida bu yerda Alisher Navoiy ham boʻlgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”da keltirishicha, Abusaid Mirzo tomonidan Samarqandga “ixroj” qilingan Alisher Navoiyning homiysi shahar hokimi Ahmad Hojiybek Vafoiy edi. Navoiy bu kishi koʻmagida Xoja Fazlulloh Abullaysiy xonaqohidan hujra olib, ikki yil shu yerda yashab, mashhur olimdan tilshunoslik, adabiyotshunoslik, fiqh – islom qonunshunosligidan sabiq oldi. Oʻzining qobiliyati tufayli ustozining eʼtiborini qozondi va shu darajaga yetdiki, Xoja Fazlulloh Abullaysiy uni “farzandim” derdi.

Alisher Navoiy 1469 yilda Hirotda qaytib, davlat arbobi sifatida ish boshlaganda ham, umuman, umrining oxiriga qadar bu xonadonni unutmadi. Samarqand bilan aloqasini yanada mustahkamladi. Shuning uchun koʻpgina samarqandlik alloma va shoirlar Hirotda borganida, Alisher Navoiy iltifotidan bahramand boʻlardiki. Abullaysiylar xonadonining ikki vakili – Xoja Fazlulloh Abullaysiyning farzandi Xoja Xovand Abullaysiy va shu xonadonga mansub Xoja Abulqosim Abullaysiy shular jumlasidan. Bularning ikkovi ham Navoiy iltifotidan bahramand boʻlgani uchun oʻz minnatdorligini kitoblar yozish bilan ifoda etgan. Xoja Xovand ibn Fazlulloh Abullaysiy “Hoshiyai miftoh” va “Hoshiyai talmih” asarlarini, Xoja Abulqosim Abullaysiy esa “Hoshiyai mutavval” asarini Navoiyga bagʻishlagan. Demak, Abullaysiylar xonadonining bu ikki namoyandasi Alisher Navoiy koʻmagida shu xonadon ilmiy anʼanalarini davom ettirgan.

Hozirgi kunda Samarqand shahrida Xoja Fazlulloh Abullaysiy yashagan mahallada uning uy-muzeyi bunyod qilingan.

– Alisher Navoiyning Samarqanddagi asarlari qanchalik oʻrganilgan?

– Alisher Navoiy asarlarining nodir qoʻlyozma nusxalari bugungi kunga qadar Samarqand davlat universiteti kutubxonasi Sharq qoʻlyozmalari boʻlimida, Samarqand Bosh muzey qoʻriqxonasi fondlarida, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi kutubxonasida saqlanadi. Bu nodir qoʻlyozmalar haqida biz oʻzimizning tadqiqot ishlarimizda maʼlumot berganmiz. Ayniqsa, SamDU kutubxonasida Navoiy hazratlarining oʻn oltinchi asrga oid shohona bezaklar bilan ziynatlangan “Badoeʻ ul-bidoya” nomli devoni saqlanishi eʼtiborga molik. Ammo hanuzgacha qadar Alisher Navoiyning Samarqandda saqlanayotgan qoʻlyozma va toshbosma asarlari bibliografiyasi qilinmagan.

Baʼzi manbalarda shoirning Samarqandda yozilgan asarlari xususida maʼlumotlar bor. Navoiyning:

Koʻkragimdir subhning pirohanidin chokrok, Kirqipim shabnab toʻkilgan sabzadin namnokrok

matlasi bilan boshlanuvchi ajoyib diltortar gʻazali Samarqandda yozilgani haqida Botirxon Valixojayev qiziqarli maʼlumotlar keltiradi. Shoirning zulqofiyatayn sanʼati bilan darj etilgan, oʻtkir fahm-farosati bilan “saromadi zamona” sanalgan doʻsti Mirzobek xotirasiga yozib tugaligan:

Koʻzung ne balo qaro boʻlubtur, Kim jonga qaro balo boʻlubtur


deb boshlanuvchi gʻazali ham Samarqanddagi ijodiyoti namunasidan biridir. U doʻsti qalami natijasi boʻlgan mazkur matlani uning xotirasini abadiylashtirish uchun toʻliq gʻazal holiga keltirgani haqida “Majolis un-nafois” tazkirasida maʼlumot beradi.

Navoiyning Samarqanddagi adabiy-ilmiy faoliyati hali juda koʻp tadqiqotlar uchun mavzu boʻlishi mumkin. Navoiyshunoslik sohasida izlanishlar olib boruvchilar shoirning bu yerda aniq va tabiiy fanlarni oʻrganish boʻyicha qilgan saʼy-harakatlari, qiziqishlari doirasi haqida chuqurroq fikr yuritmoqʻi, uning maktubotidagi Samarqand bilan bogʻliq tafsilotlarga aniqlik kiritishlari, Samarqanddagi qadamjolari xaritasi xususida oʻylab koʻrmogʻi lozim. Shoir sheʼriyatida osmon jismlari, sayyoralar bilan bogʻliq chuqur ilmiy mulohazalar koʻzga tashlanadi. Bu uning Mirzo Ulugʻbek rasadxonasida olgan taʼlimi samaralari emasmi? Bu kabi qator savollarga javob topish uchun hali tolibi ilmlar ixlos bilan juda koʻp izlanishlar olib borishlari lozim.

– Bugun shoir asarlarini aslidan uzoqlashtirmay tabdil qilish, adabiy merosni keng auditoriyaga yetkazish va uning fikriy-maʼnaviy qadriyatlarini xalqaro miqyosda anglash qanchalik muhim?

– Alisher Navoiy asarlari yozilgan til XIX-XX asrlarda “chigʻatoy turkiysi” deb atalgan, yaʼni movarounnahrlik turkiy tilda soʻzlashuvchilar tili. Hazrat Navoiy ham oʻz tilini “turkiy” deb atagan va asarlarida shu istilohni qoʻllagan. “Oʻzbek tili” deyilganda esa qipchoq shevasida soʻzlashuvchi mahalliy xalqlar tili nazarda tutilgan.

Buyuk mutafakkir asarlarini, ayniqsa, gʻazallarini soʻzma-soʻz tarjima qilish, shundan soʻnggina ularni sharhlash, izohlash, talqin etish maqsadga muvofiq. Chunki shoir gʻazallarida arabiy, forsiy soʻz va iboralar, soʻfiyona istilohlar koʻplab qoʻllangan. Bu oʻsha davr ilmiy va adabiy uslublari xususiyati edi. Soʻfiyona istilohlarni oʻrni-oʻrniga qoʻyib, toʻgʻri qoʻllab, nasriy bayon qilib ham gʻazal mazmunini anglash mushkul. Gʻazalning ham gʻoyaviy maʼno-mazmunini anglash, ham uning badiiy qudratini qalban his etish lozim. Buning uchun hakimona fahm, oʻta nozik va hozirjavob ichki tuygʻu zarur. Albatta, mutafakkir ajdodimiz sheʼriyatini hamma birday osongina tushunavermaydi. Navoiyni tushunmoq uchun bilim kerak, fahm joiz, badiiy did dardkor. U oʻzbek, qipchoq, qiyot, barlos, turk, oʻgʻuz,



Bogʻda buyuk xamsanavislar majlisi. Kamoliddin Behzod rahbarligidagi Hirotda miniatyura maktabi namoyandalari ijodi.

turkman kabi atamalarni asarlarida qoʻllash bilan birga: “Men bu tilda soʻzlashuvchilarni – ul mamlakatni yakqalam qildim”, yaʼni yozgan asarlarim bilan barcha turkiy tilda soʻzlashuvchi ellarni birlashtirdim, deydi. Shubhasiz, Hazrat Navoiyning oʻzidan ortiq qilib hych kim bu mavzuda soʻzlay olmaydi.

– Navoiy hazratlari bir ruboiysida: *Gʻurbatda gʻarib shodmon boʻlmas emish, El anga shafiq mehruvon boʻlmas emish, Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulgʻa tikondek oshyon boʻlmas emish,* deydi. Bu ruboiyning irfoniy maʼnosini sharhlab bersangiz?

– Misralarning zohiriy maʼnosiga nazar salsak, “gʻurbat” deganda musofirlik, “gʻarib” deganda esa musofir nazarda tutiladi. Haqiqatan ham, buyuk shoir Samarqandda “gʻurbat”da edi, qalbidagi Hirotda sogʻinchisi bor edi. Ammo bu yerda ul zoti sharif “gʻarib” edimi?!

Navoiy hazratlari Samarqanddagi hayotini bir “gʻarib” singari emas, balki “azizlik”da, “shodmonlik” bilan oʻtkazganligini yirik navoiyshunos olimlarimiz ham eʼtirof etgan, taʼkidlagan.

Albatta, Samarqandda Alisher Navoiy nomi bilan bogʻliq tarixiy maskanlarni saqlab qolmoq, obod etmoq lozim. Ammo ul zotning ruhi poklarini shod qilishni istasak, uning hikmatli qalamiga muhabbatni har birimiz qalbmizga naqsh etmoqʻimiz shart! Chunki biz Haq taolo aziz qilgan, Mir Alisher Navoiysi bor millatimiz.

Adiba UMIROVA
(«Xalq soʻzi») suhbatlashdi.



BOLALARNING IJTIMOIY TARMOQQA KIRISHI TAQIQLANADI

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron 15 yoshga toʻlmagan bolalarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini taqiqlashni joriy etish vaqti kelganini aytdi. Yangi qonun loyihasini oʻquv yili boshlanguniga qadar, yaʼni sentabr oyigacha qabul qilish rejalashtirilgan.

Tashabbusning asosiy maqsadi – bolalar va oʻsmirlarni raqamli platformalarning zararli taʼsiridan himoya etish. Bu chora bolalarni zararli kontentdan asraydi va ekran oldida ortiqcha vaqt oʻtkazishining oldini oladi.

Oziq-ovqat, atrof-muhit va mehnat xavfsizligi boʻyicha milliy agentlik maʼlumotlariga koʻra, Fransiya har ikkinchi oʻsmir smartfondan kuniga 2 – 5 soat mobaynida foydalanadi. 12 – 17 yosh oraliqidagi yoshlarning taxminan 90 foizi har kuni internetga smartfon orqali kirs, 58 foizi ijtimoiy tarmoqlarni muntazam ishlatadi.

SOF DAROMAD KAMAYISHI MUMKIN

Germaniyada kelgusi oʻn yilda tibbiyot, parvarish, pensiya va ishsizlik boʻyicha nafaqalar uchun ajratiladigan ijtimoiy toʻlovlar maoshning taxminan 50 foizigacha oʻsishi mumkin, deb xabar berildi “BILD” nashrida.

Bunday prognozni Berlindagi “IGES” instituti tayyorladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy sugʻurtaga brutto maoshning 42,7 foizi sarflanadi (uning yarmini ish beruvchi toʻlaydi), ammo islohotlar amalga oshirilmasa, bu yuk yanada ortishi mumkin.

Tadqiqot mualliflarining hisob-kitobiga koʻra, 2035 yilga borib millionlab ishchilarning qoʻliga oladigan sof daromad sezilarli darajada kamayadi. Bu – barcha manfaatdor tomonlar zarur islohotlarni tezda boshlashi uchun juda muhim signal. Dastlabki hisob-kitoblarga koʻra, 2027 yilning oʻzida tibbiy sugʻurta tizimidagi tanqislik taxminan 12 mlrd. yevroga yetishi mumkin.

OSHQOZON OSTI BEZI SARATONINI DAVOLASH BORASIDAGI TADQIQOT

Ispaniyalik tadqiqotchilar sichqonlardagi oshqozon osti bezi oʻsmalarini toʻliq yoʻq qilishga va kasallikning qayta yuzaga kelishini toʻxtatishga muvaffaq boʻldi.

Ammo ular bu usulni odamlarga qoʻllash uchun hali uzoq va murakkab moslashuv hamda klinik sinovlar jarayoni kutmoqda, deb taʼkidlamogda. “Bu tadqiqotlar oshqozon osti bezi protok adenokarsinomasi boʻlgan bemorlarning hayot davomiyligini oshirishi mumkin, deya sanalgan yangi birlashgan davolash usullarini ishlab chiqishga yoʻl ochadi”, deyiladi olimlar tarqatgan bayonotda.

Ispaniyada har yili oshqozon osti bezi saratonining 10 300 dan ortiq yangi holatlari aniqlanadi. Bu ilmiy yutuqning asosiy ahamiyati onkogenni faqat bir nuqtada toʻsib qoʻyganda paydo boʻladigan doriga chidamlilikning oldini olishdir.

“NIPAX” VIRUSIGA QARSHI FAVQULODDA CHORALAR KOʻRILMOQDA

Hindiston hukumati “Nipax” virusi bilan kasallanishning beshta holati tasdiqlanganidan soʻng mamlakatning sharqidagi Bengaliya shtatida epidemiyaga qarshi choralarini kuchaytirdi. Mahalliy OAV maʼlumotlariga koʻra, oʻnlab odamlar uy karantinida saqlanmogda, ayrim bemorlar shifoxonalarda davolanmogda.

“Nipax” – oʻlim darajasi yuqori boʻlgan zoonoz virus boʻlib, unga qarshi hozirgi kungacha tasdiqlangan vaksina yoki maxsus davolash usuli mavjud emas. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti uni juda xavfli patogenlar qatoriga kiritdi. Insonlarning bu virusni yuqtirishi kam uchraydi va koʻpincha choʻchqa hamda koʻrshapalaklardan yuqadi, ifloslangan oziq-ovqat orqali tarqaladi. Virus ilk bor 1999 yilda Malayziya va Singapurda aniqlangan. Shu vaqtdan beri u Janubiy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa, Bangladesh va Hindistonda bir necha bor epidemiyaga keltirib chiqargan.

Internet xabarlari asosida Sharofiddin TOʻLAGANOV
(«Xalq soʻzi») tayyorladi.



Tennis: TERMA JAMOAMIZNING RAQIBI MAʼLUM

Erkaklar terma jamoalari oʻrtasida norasmiy jahon chempionati – “Devis kubogi” musobaqasining II jahon guruhii juftliklari maʼlum boʻldi.



Oʻzbekiston terma jamoasi vakillari I jahon guruhiga chiqish uchun Nigeriya bilan kuch sinashadi. Oʻyin 6 – 8 fevral kunlari Nigeriyada boʻlib oʻtishi belgilangan. Jamoalar shu kungacha oʻzaro bahs oʻtkazmagan. Maʼlumot uchun, Oʻzbekiston terma jamoasi “Devis kubogi” reytingida ayni damda 49-oʻrinni egallab turibdi. Nigeriya esa mazkur jadvalda 74-oʻrinda qayd etilgan.

Shaxmat: VAKILLARIMIZ PESHQADAM

Niderlandiyaning Veyk-an-Zee shahri mezbonlik qilayotgan shaxmat boʻyicha anʼanaviy “Tata Steel Chess” musobaqasida 10-tur uchrashuvlari boʻlib oʻtdi. Biz uchun eʼtiborlisi, “Masters” guruhining 14 nafar grossmeysteri qatorida hamyurtlarimiz Nodirbek Abdusattorov va Javohir Sindorov ham bosh sovrin uchun bahs olib boryapti.

N. Abdusattorov oq donalarda sloveniyalik Vladimir Fedoseevga qarshi bahs olib borib, durangga rozi boʻldi. Bu bilan Nodirbekning ochkolari 6,5 taga yetdi va u turnir jadvalida hamon peshqadamlik qilmoqda.

J. Sindorov oq donalarda niderlandiyalik Yorden Van Forest bilan murosaga keldi. Grossmeysterimiz 6 ochko bilan qoʻshimcha koʻrsatkichlarga koʻra, ikkinchi oʻrinni oʻzida saqlab qoldi.



LONDON – YIRIK MUSOBAQA MEZBONI

Joriy yilning 28 apreldan 10 mayga qadar stol tennis tarixining yuz yilligiga bagʻishlangan nufuzli musobaqa – ITTF jamoaviy jahon chempionati final bosqichi boʻlib oʻtdi. London shahri mezbonlik qiladigan ushbu bahslarda dunyoning eng kuchli terma jamoalari gʻoliblik uchun kurash olib boradi.

Xususan, Vatanimiz sharafini himoya qiluvchi sportchilarimiz – Oʻzbekiston erkaklar terma jamoasi 4-guruhda Braziliya, Vengriya, Puerto-Riko terma jamoalariga qarshi oʻynasa, ayollar terma jamoamiz 11-guruhda Avstraliya, Nigeriya va Uels vakillari bilan kuch sinashadi.

FUTZAL: BIR DURANG, BIR GʻALABA

Indoneziyada futzal boʻyicha Osiyo kubogi oʻyinlari boshlandi. Qitʼamizning kuchli 16 ta terma jamoasi 4 ta guruhga boʻlingan holda gʻoliblik uchun kurashmogda.



“C” guruhidan oʻrin olgan Oʻzbekiston terma jamoasi dastlabki turda Tojikiston vakillari bilan kuch sinashdi va 0:0 hisobida durang yuq etdi. Ikki jamoa, harchand urinmasin, futzalda kam uchraydigan natija bilan bir ochkoddan boʻlishib oldi. 2-turda vakillarimiz Avstraliya terma jamoasini 4:2 hisobida magʻlubiyatga uchratishdi.

Nodir Eliboyev shogirdlari endi guruhdagi navbatdagi oʻyinni 1 fevral kuni Yaponiya jamoasi bilan oʻtkazadi.

Sunnatilla ISLOMOV
(«Xalq soʻzi»).

Amaldagi mehnat qonunchiligi asosida 3 jildidan iborat «Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ilmiy-amaliy sharh» kitobi tayyorlandi.

Xalq soʻzi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir Oʻtkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi maʼlumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
eʼlonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov koʻchasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Gʻ. Bahromov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon koʻchasi, 41. OʻZA yakuni – 22.50 Topshirildi – 00.10 **1 2 3 4 5 6**